



XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 2 - mart

VI-57-25-11-157-K/23

Qo'shtepa tuman hokimligi

2022-yil 4-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdag'i "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldag'i "Mahalliy byudjet mablag'ları sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-51-25-11-157-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizom ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldag'i "Mahalliy byudjet mablag'ları sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-51-25-11-157-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomga asosan 2022-yilda 4-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan Qo'shtepa tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri I.Akbarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2022-yil 4-choragida "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoni natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1 va 2-ilovaga muvofiq;

2022-yil 4-choragida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi mablag'larining shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2022-yil 4-choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (I.Akbarov), tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Qosimova) “Tashabbusli byudjetlashtirish” natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq byudjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Yunusov), ijrosini ta’minlash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining birinchi o‘rnbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



I.V.Novikov

Xalq deputatlari Qo'shtepa
tuman Kengashining
2023 yil 2 martdag'i
VI-57-25-11-157-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

Qo'shtepa tumani

01.01.2023 y

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa
		(ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	411 650,7
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	19 949 926,0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	18 985 965,5
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	14 449 553,8
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	4 536 411,0
3.3.	Iqtisid qilinib, jamg'armaga tiklangan mablag'lar	630 439,6
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	1 375 611,2

Xalq deputatlari Qo'shtepa
tuman Kengashining
2023 yil 2 martdag'i
VI-57-25-11-157-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha MA'LUMOT

Qo'shtepa tumani

01.01.2023 y

ming.so'm

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalash tirlgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar	18	umumiy uzunligi	38217	13 957 400
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	504 480
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	800 000
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	950 425
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	2	soni	2	1 102 200
7	Elektr infratuzilmasini yaxshilash	7	soni	7	1 977 900
8	Axolini oqma gaz bilan ta'minlash	1	soni	1	324 000
9	Boshqa tadbirlar		soni		
jami		33	X	X	19 616 405

Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining
2023 yil 2 martdag'i
VI-57-25-11-157-K/23-son qaroriga
3-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan

MA'LUMOT

Qo'shtepa tumani

01.01.2023 y

ming.so'm

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	4 458 411,0	4 458 410,0			8 916 821,0	0,0	
2	Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	1 163 000,0	2 707 200,0	450 000,0	6 712 905,0	11 033 105,0	0,0	

2.1.	Shu jumladan	erkin qoldiq mablag‘lari	1 163 000,0				1 163 000,0	0,0	
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		214 000,0	450 000,0	568 000,0	1 232 000,0	0,0	
2.3.		davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar					0,0	0,0	
2.4.		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag‘lar					0,0	0,0	
2.5.		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-197 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar		2 493 200,0			2 493 200,0	0,0	
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-409 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar				6 144 905,0	6 144 905,0		
3	Jami ajratiladigan mablag‘lar		5 621 411,0	7 165 610,0	450 000,0	6 712 905,0	19 949 926,0	0,0	

Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining
2023 yil 2 martdag'i
VI-57-25-11-157-K/23-son qaroriga
4-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan

MA'LUMOT

Qo'shtepa tumani

01.01.2023 y

ming.so'm

/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlar soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)						
			onlayn ovozlar	oflayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni <u>amalga oshirish</u> <u>qiymati*</u>	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Iqtisod qilinib, jamg'armaga qaytarilgan mablag'	Qoldiq mablag'lar
1	1480400015	3 965	134	0	3 831	Qo'shtepa tumani Qorajiyda qishlog'i elektr infratuzilmasini yaxshilash	401722860302067065200110002	1 080 000	1 080 000	1 080 000	1 065 175	14 825	-
2	1480400009	3 908	13	0	3 895	G'ishtmon MFY Oxang ko'chasi infratuzilmasini yaxshilash	401722860302067065200110003	1 075 200	1 075 200	1 075 200	1 067 745	7 455	-

3	1480400109	3 215	841	0	2 374	Gaz taminotini kayta rekanstruksiya kilish.OqtepaMFY Nayman kishlogi Qushtepa tumanining eng chekka hududida joylashgan bulib gaz tarmagini asosiy quvriga ulangan.Xozirda qushni qishloqning bizni tarmoqqa ulanganligi va istemolchi soni oshganligi natijasida gaz bosimi pasayishiga olib keldi.Yuqoridaqilarni inobatga olib,OqtepaMFY Nayman qishlogiga asosiy quvirdan yangi tarmoq ochib,xar bir honadonni tuliq tabiy gaz bilan taminlash kerak.	401722860302067065200110004	600 000	600 000	600 000	571 605	28 395	-		
4	1480400043	3 183	173	0	3 010	Shomirza MFY Chinobod ko‘chasiда joylashgan "O‘zbekiston" shifokorlar xizmat uyini ta’mirlash uchun mablag‘ ajratish zarur	401722860302067072130054001	200 000	200 000	200 000	195 656	4 344	-		
5	1480400031	3 169	103	0	3 066	Gishtmon mfy Ma’naviyat, Ibn sino va Nafosat kuchalarining infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag‘ ajratish zarur	401722860302067065200110005	730 100	730 100	730 100	707 090	23 010	-		
6	1480400032	2 847	139	0	2 708	Gishmon MFY Badish ko‘chasinging infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag‘ ajratish zarur	401722860302067065200110006	227 400	227 400	227 400	216 596	10 804	-		

7	1480400008	2 594	54	0	2 540	Xozirgi kunda bizni Gishtmon maxalla fukorolar yiginidagi Bunyodkor, Dilxush va Yangiarik kuchalari tashkil kilingandan buyon asfaltlanmagan. Ushbu kuchalarni 2591 metr kismini asfalt kilish uchun OPEN byudjet mablaglari xissobidan 880900000(sakkiz yuz sakson million to‘qqiz yuz ming) so‘m mablag ajratishingizni iltimos kilaman.	401722860302067045204110001	880 900	880 900	880 900	855 040	25 860	-	
8	1480400108	2 490	293	0	2 197	G‘ishtmon MFY Yangiariq va Ma‘naviyat ko‘chalarini Karnaychi MFYsiga ularish qismigacha asfaltlashtirishdan	401722860302067045204110002	622 000	622 000	622 000	593 562	28 438	-	
9	1480400060	2 452	63	0	2 389	Paxtakor mfy Margilonsov kuchasini asfaltlash tirish 600 metr	401722860302067045204110003	450 000	450 000	450 000	433 467	16 533	-	
10	1480400033	2 382	7	0	2 375	Katta Beshkapa MFY Bog‘imaydon ko‘chasining infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag‘ ajratish zarur	401722860302067065200110007	171 500	171 500	171 500	167 464	4 036	-	
11	1480400011	2 369	23	0	2 346	Bo‘ston MFY Kanalbo‘yi ko‘chasiga 1 dona trasformator 20 dona sim yog‘och va 500 metr tarmoq tortish uchun 141 mln 200 ming so‘m mablag‘ ajratish zarur	401722860302067065200110008	141 200	141 200	141 200	137 950	3 250	-	
12	1480400101	2 316	9	0	2 307	Qo‘shtepa tumani, Loyson MFY, Mulkobod k-sini 1000 metr qismini asfalt qilish zarur	401722860302067045204110004	450 000	450 000	450 000	412 571	37 429	-	

13	1480400010	2 311	8	0	2 303	Qumtepa mfy iqtidor ko‘chasining 500 metr qismini asfalt qilish uchun mablag‘ ajratish	401722860302067045204110005	170 000	170 000	170 000	165 073	4 927	-
14	1480400017	2 210	11	0	2 199	Qorakaltak MFY Kelajak ko‘chasiga 2 dona transformator, 60 dona simyog‘och va 500 metr elektr tarmog‘i tortish uchun 247 million 600 ming so‘m mablag‘ ajratish zarur	401722860302067065200110009	247 600	247 600	247 600	241 376	6 224	-
15	1480400037	2 181	19	0	2 162	Kichik Beshkapa mfy dagi Hilol , Ravnaq va Subhidam ko‘chalarining infratuzilmasini yahshiglash uchun mablag‘ ajratish zarur	401722860302067065200110010	485 600	485 600	485 600	469 474	16 127	-
16	1480400024	2 137	14	0	2 123	Qo‘shtepa tumani Qirg‘izobod qishlog‘i ichki ko‘chalari asfaltlashtirilmagan. Ch.Aytmatov, Oydinbuloq ko‘chalari Nayman ko‘chasi yangi cheklarini asfaltlashtirish zarur. Bu ko‘chalarda yozda chang va qishda loy bilan qoplanib qoladi.	401722860302067045204110006	950 000	950 000	950 000	906 792	43 208	-
17	1480400039	2 043	519	0	1 524	Kizilarik MFY binosini joriy tamirlash	401722860302067011402259001	190 000	190 000	190 000	184 650	5 350	-
18	1480600037	8 701	0	0	8 701	G‘ishtmon mfy ichki yo‘llarini safaltlash 3600 m (Yangiariq 1510m, ohang 1500m, Ibin Sino 205m va Nafosat 385m ko‘chalarini asfaltlash)	401722860302067045204118003	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 176 247	23 050	703
19	1480600076	8 575	0	0	8 575	Soybo‘yi mfy sahovat, archazor, marg‘ilon, soy yoqasi ko‘chalarini asfaltlashtrish.	401722860302067045204118004	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 160 120	39 880	-

20	1480600111	8 275	0	0	8 275	Xo‘jaqishloq mfy samimiyat va nurlitong ko‘chalarini 3 km qismini asfalt qilish	401722860302067045204118005	1 200 000	1 200 000	1 200 000	190 612	25 697	983 690
21	1480600116	8 260	0	0	8 260	Durmon (Kichikbog kucha-750 metr, Beqiyos kucha-350 metr, Istiqbol, Baraka, Durmontepa kuchalari -300 metrdan) va Dustlik (Faxr kuchasi-1600 metr) MFY lar ichki yullarni astfaltlashtirish	401722860302067045204118006	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 173 445	25 697	857
22	1480600017	7 763	0	0	7 763	Qo‘shtepa tumani O‘qchi MFY hududidagi Pastki O‘qchi, Iqbol va Giloszor ko‘chalarini bog‘lovchi asosiy yo‘Ini 2.7 km qismiga qayta asfalt yotqizish uchun.	401722860302067045204118007	980 000	980 000	980 000	295 156	19 844,0	665 000
23	1480600066	6 619	0	0	6 619	Qorajiyda qishloq vrachlik punkti, mahalla qabristoni va jome’ masjidi joylashgan Xamjixat, Gilamchi, Shaffof va Jasorat ko‘chalari ichki yo‘llarini 3 km qismini asfalt qilish kerak. Bu ko‘chaga boshqa ichki ko‘chalar tutashgan bo‘lib aholi eng ko‘p yuradigan yo‘l hisoblanadi.	401722860302067045204118008	1 200 000	1 200 000	1 200 000	184 746	38 810,600	976 443
24	1480600050	4 216	0	0	4 216	Qo‘shtepa tuman 1-sон kasbhunar maktabiga 750 nafardan ortiq o‘quvchilar uchun 2 ta mini sun’iy futbol maydoni qurish	401722860302067092901079001	760 425	760 425	760 425	517 561	74 052	168 813

25	1480600031	3 885	0	0	3 885	Assalomu alekum men Tashabbus budjeti haqida telegram sahifasida bilib oldim, va shu loyixada ishtirok etib Qoshstepta tumani Loyson MFY Dilkash ko'chamizni 2 kilometr ichki kochalarni asfalt qilib Tashabbus Budjet loyixasida g'olib bolumoqchimiz Bizni qollab-quvatlaganlarga oz minnatdorchilimizni bildirib qolamiz. Shu bilan birga Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev janoblariga oz minnatdorchilimizni bildiramiz.	401722860302067045204118009	900 000	900 000	900 000	261 198	51 110	587 692		
26	1480600006	3 291	0	0	3 291	Qoshtepa tumani Qo'rg'oncha mfy Yakkatut ko'cha 14-uya joylashgan 28-maktab o'quv xonalarini eshik va romlarini yangilash mavjud sport zalini tamirlash va issiqlik tizimi bilan taminlash	401722860302067092100075003	504 480	504 480	504 480	325 749	11 494	167 238		
27	1480600103	2 063	0	0	2 063	Yuqumli kasalliklar shifoxonasi kanalizatsiya tarmog'ini tamirlash	401722860302067073101054001	600 000	600 000	600 000	587 005	12 995	-		
28	1480600019	2 038	0	0	2 038	Qoshtepa tumani "Mumtoz" mahalla Sherdor hamda Mumtoz ko'chalarini 3,0 km qismini asfaltlashdirish zarur. Nеччи yillardan buyon ushbu ko'chalarga asfalt yotqizilmagan. Aholi qishda loy, yozda chang ko'chalardan qatnaydi.	401722860302067045204118010	1 200 000	1 200 000	1 200 000	186 429	27 596,700	985 975		

Jami:	19 616 405	19 616 405	19 616 405	14 449 554	630 440	4 536 411
-------	------------	---------------	---------------	------------	---------	-----------